
Hidoyatxon Saynazarova: Eng ulug' va eng aziz bayramda menga munosib sovg'a qilindi

Turmush o'rtog'i 2021 yilda yurak xurujidan vafot etgan Hidoyatxon Saynazarova bir o'g'il, bir qizi bilan yashaydi. Qizi 1-guruh nogironi. O'g'li Muhammaddiyor singlisini parvarishiga onasiga katta ko'makchi.

O'zi obodonlashtirish boshqarmasida 10 yildan buyon ishlaydi. Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov mazkur xonadonga tashrif buyurib, shart-sharoitlarni o'rgandi. Xonadonni ta'mirlash ishlariiga bosh-qosh bo'ldi.

Bir oy mobaynida qurilish ishlari olib borildi, - deydi H.Saynazarova. - Mustaqillik bayrami arafasida yangidan ta'mirlangan uyimiz topshirildi. Davlatimiz rahbarining biz xotin-qizlarga berayotgan e'tiborlaridan juda mammunman.

"Ayollar daftari"da turgan Hidoyatxon opa uy-joyining qurilishi va ta'mirlanish ishlarida o'z hissalarini qo'shganlarni duo qildi. Shahrimizda bunday xayrli ishlar davom etmoqda.

2023-09-09 12:17:00